



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ БО'ЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРИНИ FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA KREATIVLIKNING TEXNOLOGIYALARI

Rasulxo'jaeva Madina Axmadjonovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrasida pedagogika fanlari falsafa doktori*

madinarasulxojayeva7@gmail.com

G'ofurjonova Laylo Zafar qizi

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarini faoliyatini tashkil qilishda kreativlikning texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, kreativlik, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, texnologiya, pedagog.

Pedagoglarning o'z ustida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir. O'zini o'zi baholash– shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash sub'ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'ektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. O'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi pedagogning ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog kasbi o'z mohiyatiga ko'ra individualdir. Har bir pedagogning hayotda o'z o'rni, ishining ustasi bo'lishi, juda ilg'or, dunyoviy ilmiy bilimlarga ega bo'lishi



bilan birgalikda o‘z ishini mohirlik bilan amalga oshiruvchi sifatida ifodalanadi. Pedagog mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. Pedagog, eng avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim.

Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega .

Mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo‘lish mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati jarayonida go‘zaldir.

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.


Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o‘zining ilmiy asoslariga ega. So‘nggi yillardagi ilmiy yondashuvlar bu holatga nisbatan quydagicha xulosa qilishga imkon berdi: pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi induviduallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi induvidualligini xarakterlaydi. ***Xo‘sh, pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo‘ladi?*** Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarda pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushuncha mohiyatining aniqroq ta’rifi “Pedagogik ensiklopediya”da berilgan bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta’rif pedagogik mahorat mazmun – mohiyatini ancha to‘g‘ri yoritadi.

PEDAGOGIK MAHORAT -“*Tarbiya va o‘qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkonini ta‘minlovchi san‘at bo‘lib, ta‘lim oluvchiga mehr qo‘ygan va o‘z kasbini sevgan, har bir pedagogning qiladigan ishi. O‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan pedagog – bu yuksak daraja madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san‘atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbivalash va o‘qitish uslubivotini mukammal egallagan*



Bu ta'rifni yaxshi tushunib, uning ma'no mohiyatini tahlil etadigan bo'lsak, ushbu ta'rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmuniga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo'ladi:



Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos – bu insonparvar va tolerant bo'lishi muhim sanaladi. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs. U juda ko'p tarmoqli bo'lishi kerak. Hozirgi zamonda o'zi tarbiyachi mashg'ulot jarayonida sohasiga oid yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar jarayonida yangiliklardan xabardor etib, o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib, o'rganib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, pedagog, pedagogik mahoratning asosiysiysi o'z ustida mustaqil ishlashdir. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida, milliy ahloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar an'analarni joy-joyiga qo'yish milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-ahloqli qalb egasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.



Bu muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarning o‘rni muhim va pedagogik mahorat faning roli ulkan.

Pedagogik mahorat – tug‘ma yoki nasldan-naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Bu ko‘p qirrali pedagogik faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi.

Agar pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qarasa, u holda birinchi o‘ringa uning integral sifati – mahoratidan iborat. Pedagogik mahoratga berilgan ta‘riflar shuncha ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir jihatlari albatta ifodalanadi.


Mahorat – bu yuqori va yuksalib boruvchi tarbiya va o‘qitish san’atidan iborat. Pedagog o‘z ishining ustasi, o‘z fanini chuqur biluvchi, fan va san’atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o‘qitish va tarbiyalash metodikasini har tamonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo‘lgan mutaxassisdir. Bo‘lajak mutaxassislarning mahoratini oshirishda ma’ruza darslarining o‘rni qanchalik zarur bo‘lsa, seminar mashg‘ulotlarining o‘rni ham shunchalik muhimdir.

“Pedagogik mahorat”ning maqsadi - pedagoglarga kasbiy ijod, mahorat malakalarini shakllantirish, pedagogik texnikani egallash to‘g‘risida tushuncha berishdan iborat¹.

Pedagogik mahorat-bu tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyiligi, ijodkorligi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroflicha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o‘rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topib amaliy faoliyatda qo‘llashida namoyon bo‘ladi².

¹М.А.Расулхўжаева ТАРБИЯЧИНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИ ВА КОМПЕТЕНТЛИГИ МОДУЛИ// Касбий қайта тайёрлаш йўналиши тингловчилари учун Ў Қ У В – У С Л У Б И Й М А Ж М У А// Низомий номидаги ТДПУ Тошкент 2018 йил. 191 бет. 32 бет

².Уша манба 37 бет



Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Har bir pedagogning hayotda o‘z o‘rni, ishining ustasi bo‘lishi, juda ilg‘or, dunyoviy ilmiy bilimlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda o‘z ishini mohirlik bilan amalga oshiruvchi sifatida ifodalanadi. Pedagog mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. Pedagog, eng avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim.

³. Уша манба 38,41 бетлар

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Ubayevna, R. X. (2023). BATAREYKALAR VA ULARNING BOLA HAYOTIDAGI SALBIY TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 83-88.
2. Ризаева, Х. У., & Искандаров, Н. Р. (2023). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МЕЎНАТ ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 7(1), 89-98.
3. Rizayeva, X. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAГИ BOLALARDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLANING ROLI. *Science and innovation*, 1(B8), 2165-2168.
4. Rizayeva, X. U. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARINING KUNDALIK TA'LIMIY FAOLIYATI DAVOMIDA MILLIY QADRIYAT TUSHUNCHALARINI BOLA ONGIGA SINGDIRILISH DARAJASI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 129-134.
5. Расулхожаева, М. А. (2012). Роль воспитателей в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста посредством знакомства с животным миром. *Молодой ученый*, (7), 314-316.
6. Расулходжаева, М. А. (2022). КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ. *Национальная ассоциация ученых*, (80), 30-32.
7. Rasulkhujajeva, M. A. (2019). Educator's Role in Forming Moral Qualities Senior Preschool Age Children by Introducing Animal World. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Ширбачеева, Г. Ш. (2020). Качество работы дошкольной образовательной организации зависит от руководителя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (2), 46-51.
9. Ширбачеева, Г. Ш. (2021). УПРАВЛЕНЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РУКОВОДИТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СФЕРЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ НАЧИНАЮЩИХ ПЕДАГОГОВ. In *Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст* (pp. 303-308).
10. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). К проблеме качества образования в дошкольном учреждении. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 33-39).
11. Ширбачеева, Г. Ш., & Халилова, Г. В. (2020). Педагогическое мастерство воспитателя. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 74-79.
12. Ширбачеева, Г. Ш. (2019). Роль руководителя в адаптации новых сотрудников дошкольного образовательного учреждения. In *Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации* (pp. 88-89).